

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxxongir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

THE SIGNIFICANCE OF RENDERING A DEFAULT JUDGMENT IN ENSURING THE EFFICIENCY OF CIVIL PROCEEDINGS

Mansurova Xulkar Nabiyeвна,

Independent researcher at the law
enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: xulkarmansurova@gmail.com

Abstract. The article provides a systematic analysis of the provisions of the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan governing the conditions for rendering default judgments, the procedural safeguards of their application (proper notification, the claimant's consent, participation of multiple defendants, restrictions on amending claims), as well as the procedure for reviewing default judgments. The study reveals a trend of increasing numbers of default judgments in judicial practice accompanied by a decrease in the rate of their annulment. Within the framework of comparative legal analysis, the experience of foreign jurisdictions is examined and proposals aimed at improving national legislation are put forward.

Keywords: civil procedure, default proceedings, default judgment, procedural liability, proper notification, review of judgments, comparative legal analysis.

FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQUARISHNING AHAMIYATI

Mansurova Xulkar Nabiyeвна,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida sirdan hal qiluv qarori chiqarishning shartlari, uni qo'llashning protsessual kafolatlari (xabardor qilish, da'vogar roziligi, bir nechta javobgarlar ishtiroki, talablarni o'zgartirishga qo'yilgan cheklovlar) hamda sirdan qarorni qayta ko'rib chiqish tartibiga oid normalar tizimli tahlil qilinadi. Sud amaliyotida sirdan qarorlar sonining o'sishi va ularni bekor qilish ko'rsatkichining pasayishi tendensiyasi ochib beriladi. Qiyosiy-huquqiy tahlil doirasida xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilib, milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik protsessi, sirdan ish yuritish, sirdan hal qiluv qarori, protsessual javobgarlik, xabardor qilish, qayta ko'rib chiqish, qiyosiy-huquqiy tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N48>

Kirish. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda dispozitsiya (erkin huquqlilik) prinsipi amal qiladi, bu esa taraflarga sud protsessida o'z xatti-harakatlarini erkin boshqarish huquqini kafolatlaydi. Ular sud protsessini boshlashini, hajmini va tugashini belgilash huquqiga egadirlar. Ammo ushbu prinsip taraflar tomonidan hech qanday cheklovlarsiz amalga oshiriladi, degani emas. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda taraflardan kamida minimal darajada hamkorlik qilish talab qilinadi. Agar taraflardan biri to'la passiv bo'lsa, bu sud jarayonining to'xtashiga olib keladi va qarshi tarafning odil sudlovga erishish huquqini kechiktiradi. Bu

holatni oldini olish maqsadida, deyarli butun dunyoda amal qiluvchi FPKda ayrim holatlarda sirtidan (ya'ni, tomonlardan birining ishtirokisiz) sudlashish imkoniyati nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi FPKda sudda fuqarolik ishlarini ko'rish va hal etish tartibini batafsil ifoda etuvchi fuqarolik protsessual huquqining normalari mustahkamlangan. Unda sud ishlarini yuritishning asosiy prinsiplari mustahkamlab qo'yilgan, sud qarorlari ustidan shikoyat va protest keltirish institutlari o'z ifodasini topgan, shuningdek odatdagi sud ishlarini yuritishdan o'zgacha bo'lgan, sud ishlarini ixchamlashtirilgan tartibda ko'rish va hal etish, ya'ni sirtidan hal qiluv qarori chiqarish instituti ham o'rin olgan.

Muqaddam 1997 yil 30 avgustda mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi Fuqarolik protsessual kodeksi qabul qilingunga qadar qonunchilikda fuqarolik ishlarini sirtidan ko'rish va hal qilish instituti mavjud bo'lmagan. O'zbekiston mustaqillikka erishib, dunyo hamjamiyatlari o'rtasida munosib o'rin egallashi tufayli qonun ijodkorligida taraqqiy etgan davlatlarning tajribalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etildi. Shu ma'noda fuqarolik ishlarini sirtidan ko'rish instituti ilk bora fuqarolik protsessual qonunchiligimizda o'z aksini topdi.

Adabiyotlar sharhi. Sirtidan ish ko'rishning asosiy maqsadi fuqarolik protsessida taraflarning, ayniqsa, javobgarning harakati (harakatsizligi) uchun protsessual javobgarlikni oshirish, nizoli masalani hal etishni tezlashtirish, shuningdek sudyalarning ixtiyorida bo'lgan ishlarining mazmun-mohiyatini yo'qotmasdan, o'z vaqtida ko'rish va hal etish orqali manfaatdor shaxslarning qonuniy huquqlarini himoya qilishdan iboratdir. Adabiyotlarda ham sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorlarini sudga kelish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan, sudni kelolmaslik sabablari to'g'risida ogohlantirmagan javobgarga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik sifatida e'tirof etiladi. Xususan, professor M.Mamasiddiqovning fikricha, protsessual huquqlardan noto'g'ri foydalanish yoki protsessual majburiyatlarni bajarmaslik taraflar uchun salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi va ishni sirtidan ko'rib chiqish shular jumlasidandir [1].

Sirtidan ish ko'rish va hal qiluv qarorini chiqarish uchun oddiy va ixcham protsessual harakatlarni amalga oshirish imkoniyatidan foydalanish vujudga keladi. Olimlar ham sirtidan qaror chiqarish institutining amalga oshirilishi fuqarolik protsessida da'vogarlarining huquqlarini qo'shimcha kafolatlar bilan mustahkamlash, taraflarning, ayniqsa javobgar shaxslarning o'z harakat yoki harakatsizliklari uchun javobgarlik me'yorlarini oshirish, nizolarga ruxsat berilishini tezlatish, shuningdek sud ish yurituvida bo'lgan fuqarolik ishlarini birmuncha qisqartirish va ularni sud ish yurituvida to'planib qolishini oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tadilar [2].

O'zbekistonlik sudyalarning fikricha ham "... da'vogar ishni javobgar kelmasa ham uning ishtirokisiz ko'rib chiqishni so'rasa, buning natijasida da'vogar tezroq qarorni kuchga kirishi va buzilgan huquqini tezroq tiklashni istaydi. Javobgar esa, ko'p hollarda sudda ishtirok etmagani asosida sirtidan chiqarilgan qarorni bekor qilib, vaqtni cho'zish orqali o'zida to'lov imkoniyatlarini qidiradi. Ayrim hollarda esa sirtidan chiqarilgan qarorni bekor qilish va ishni mazmunan qayta ko'rish jarayonida da'vogar bilan medeativ kelishuvga yoki da'vogarni da'voni ko'rmasdan qoldirishga undash orqali shunday ham ortiqcha yuk bo'layotgan davlat bojini to'lamaslikka erishishni maqsad qiladi" [3].

Ma'lumki, sud majlisiga javobgar tarafning kelmasligi ishni ko'rib chiqish jarayonini kechiktiradi va da'vogarlarining buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini qayta tiklanishiga

to'sqinlik qiladi. Bu da'vogarning manfaatlariga qaysidir ma'noda qarshi chiqish va ma'lum bir majburiyatlarning bajarilishidan himoyalanişning qonunda nazarda tutilmagan shakli sifatida ham e'tirof etiladi. O'z navbatida, javobgarning sud protsessiga uzrli sabablarsiz kelmasligi huquq va qonuniy manfaatlarini buzilgan tarafning sud himoyasidan foydalanish huquqini amalga oshirish jarayonini kechiktiradi.

Tahlil va natijalar. Nemis mutaxassislarining hisob-kitobiga qaraganda, javobgarga qarshi sirtidan qaror chiqarish (GFR FPKning 331-moddasi, 1 va 2-bandi) umumiy da'vo tartibida ko'rilgan va hal qiluv qarori chiqarilgan ishlardan ko'ra ancha ko'proq uchraydi. Negaki, sudga murojaat qilgan har bir kishi faol bo'lib, "muvaffaqiyatli natijaga intiladi". Boshqa tarafdin, javobgarning passiv qolishi uchun mantiqli sabablar bo'lishi mumkin: masalan, sud jarayoni unga og'irlik qilishi, pullari tugashi yoki e'tiborsizlik sababli muddatlarni o'tkazib yuborishi shular jumlasidandir [4].

Sirtidan qabul qilingan hal qiluv qarorlari statistikasi

№	Hududlar	2020 yilda jami qabul qilingan	shuhdan, qayta ko'rib chiqish natijalari bo'yicha		2021 yilda jami qabul qilingan	shuhdan, qayta ko'rib chiqish natijalari bo'yicha		2022 yilda jami qabul qilingan	shuhdan, qayta ko'rib chiqish natijalari bo'yicha		2023 yilda jami qabul qilingan	shuhdan, qayta ko'rib chiqish natijalari bo'yicha		2024 yilda jami qabul qilingan	shuhdan, qayta ko'rib chiqish natijalari bo'yicha	
			bekor qilingan	%		bekor qilingan	%		bekor qilingan	%		bekor qilingan	%		bekor qilingan	%
1	Andijon viloyati	1 144	6	0,5%	11 015	253	2,3%	20 173	907	4,5%	7 827	965	12,3%	10 245	705	6,9%
2	Buxoro viloyati	847	17	2,0%	2 664	142	5,3%	3 528	311	8,8%	3 049	296	9,7%	4 049	194	4,8%
3	Jizzax viloyati	769	33	4,3%	1 219	88	7,2%	1 747	175	10,0%	1 513	149	9,8%	322	47	14,6%
4	Qashqadaryo viloyati	1 969	75	3,8%	5 164	353	6,8%	11 255	1 461	13,0%	6 039	1 419	23,5%	4 851	638	13,2%
5	Qoraqalpog'iston R.	161	1	0,6%	4 458	50	1,1%	2 813	189	6,7%	1 954	249	12,7%	2 955	142	4,8%
6	Navoiy viloyati	1 103	43	3,9%	6 897	235	3,4%	6 068	362	6,0%	2 363	298	12,6%	2 770	147	5,3%
7	Namangan viloyati	680	38	5,6%	3 586	176	4,9%	9 816	949	9,7%	2 570	814	31,7%	2 460	231	9,4%
8	Samarqand viloyati	4 213	153	3,6%	14 287	704	4,9%	18 426	1 005	5,5%	11 088	1 228	11,1%	9 137	916	10,0%
9	Sirdaryo viloyati	521	18	3,5%	1 744	68	3,9%	2 475	182	7,4%	1 164	125	10,7%	596	56	9,4%
10	Surxondaryo viloyati	613	26	4,2%	7 279	575	7,9%	13 671	1 959	14,3%	8 379	1 564	18,7%	6 418	655	10,2%
11	Toshkent viloyati	1 639	326	19,9%	8 346	675	8,1%	16 437	1 192	7,3%	16 006	1 160	7,2%	17 797	1 019	5,7%
12	Toshkent shahri	13 274	129	1,0%	23 606	931	3,9%	36 808	1 915	5,2%	22 433	2 059	9,2%	29 192	2 297	7,9%
13	Farg'ona viloyati	273	28	10,3%	4 277	184	4,3%	7 839	679	8,7%	2 647	719	27,2%	2 515	485	19,3%
14	Xorazm viloyati	102		0,0%	3 127	174	5,6%	3 360	291	8,7%	2 398	311	13,0%	1 487	94	6,3%
JAMI		27 308	893	3,3%	97 669	4 608	4,7%	154 416	11 577	7,5%	89 430	11 356	12,7%	94 794	7 626	8,0%

Mamlakatimizda sirtidan qabul qilingan hal qiluv qarorlari statistikasiga murojaat qiladigan bo'lsak, masalan, 2023 yilda respublika sudlari tomonidan jami 89 430 ta sirtidan hal qiluv qarori qabul qilingan bo'lsa, shundan 11 356 tasi, ya'ni 12,7 foizi bekor qilingan. Xuddi shunday, 2024 yilda 94 794 ta sirtidan qabul qilingan hal qiluv qaroridan 7 626 tasi, ya'ni 8,0 foizi bekor qilingan [5].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sud amaliyotida sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorlarining soni yildan-yilga ko'raygan bo'lsa-da, biroq ularni bekor qilish foizi yildan-yilga kamayib bormoqda.

Amaliyotchi sudyalarning e'tirof etishicha, «...berilgan bunday arizalarning ko'rib chiqilishi natijasida sirtidan qabul qilingan hal qiluv qarori bekor qilinib, ish mazmunan javobgar ishtirokida qayta ko'rib chiqilganda ham katta ehtimol bilan ularning 98 foiz qismida dastlabki, ya'ni sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarori mazmuni o'zgarmay qoladi yoki xuddi

sirtidan qabul qilingan qaror mazmunidagi kabi yangi qaror qabul qilinayotganini ko'rish mumkin» [6].

Sirtidan hal qiluv qarori (default judgment) instituti hozirgi kunda ko'pgina rivojlangan mamlakatlar fuqarolik protsessual huquqida muhim o'rin tutadi. Masalan, Angliya fuqarolik protsessual tizimida "default judgment" keng qo'llaniladi. Agar javobgar talabnoma (claim form) berilgandan so'ng belgilangan muddatda (odatda 14 kun) javob bermasa, da'vogar suddan sirtidan hal qiluv qarori chiqarishni so'ray oladi. Bu holatda sud ishni muhokama qilmasdan, da'vogarning talabini qabul qilib, qarori chiqaradi. Angliya va Uels fuqarolik sudlarida sirtidan qaror chiqarish deyarli barcha turdagi ishlar va da'voli ishlar bo'yicha chiqarilishi mumkin. Bular faqat pul talablari yoki shartnomaviy da'volar bilan cheklanmaydi. Agar bunday qaror chiqarish fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalarida taqiqlanmagan bo'lsa, da'vo bergan tomon tomonidan Angliya va Uelsdagi har qanday fuqarolik ishlari doirasida sirtidan qaror chiqarilishi mumkin. Birgina istisno mavjud, u ham bo'lsa, 1974 yilgi Iste'mol kreditlari to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadigan tovar yetkazib berish bo'yicha da'vo shular jumlasidandir.

Sirtidan qaror chiqarilishini ta'minlash uchun, da'vogar tomonidan o'zining protsessual talablarni bajarganligiga hamda javobgar tomonning mazkur talablarni bajarmaganligiga oid dalillarni sudga taqdim etishi zarur [7].

AQShda Federal Rules of Civil Procedure (FRCP) 55-qoidasi bo'yicha sirtidan hal qiluv qarorlari joriy etilgan. Agar javobgar o'z vaqtida ishga javob bermasa, sud da'vogar foydasiga qaror chiqaradi. Ba'zi hollarda, ayniqsa zarar miqdori aniq bo'lmagan taqdirda, sud qo'shimcha eshituv o'tkazishi mumkin.

AQSh Fuqarolik sud ishlarini yuritishning federal qoidalari (Federal Rules of Civil Procedure)da belgilanishicha, agar da'vogar belgilangan summani undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bilan murojaat qilsa, kotib — da'vogarning yozma so'roviga ko'ra, unga tegishli bo'lgan summa va uning asoslari ko'rsatilgan yozma tasdiqnoma asosida sudga kelmagan javobgarga nisbatan (shu o'rinda voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz bo'lgan shaxslar bundan mustasno) ushbu summa hamda sud xarajatlarini undirish bo'yicha qaror chiqarish huquqiga ega. Yuqorida qayd etilgan voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz bo'lgan shaxslarga nisbatan qilingan da'vo ishlaridan tashqari boshqa barcha ishlar bo'yicha da'vogarlar sirtidan qaror chiqarishni so'rab sudga murojaat qilish huquqiga ega. Shuningdek, agar javobgar shaxsning bosh vakili, homiysi yoki shunga o'xshash vakolatli shaxsi ishtirok etgan taqdirda sud voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz bo'lgan shaxslarga nisbatan ham sirtidan qaror chiqarish vakolatiga ega bo'ladi. Agar sirtidan qaror chiqarilishi so'ralgan javobgar shaxsan yoki vakili orqali sudga kelgan bo'lsa, bu taraf yoki uning vakiliga eshituvdan kamida 7 kun oldin yozma ravishda xabar berish majburiydir [8].

Fransiya fuqarolik protsessual qonunchiligida ham "jugement par défaut" tushunchasi mavjud. Agar javobgar chaqiruvga qaramasdan ishda qatnashmasa va uzrli sabab keltirmasa, sud uning qatnashmasligini inobatga olgan holda, ishni uning ishtirokisiz, sirtidan hal qilishi mumkin. Fransiya Fuqarolik protsessual kodeksining 473-moddasi birinchi qismiga ko'ra, agar sud qaror yakuniy bo'lsa va chaqiruv qog'ozi javobgarga shaxsan topshirilgan bo'lib, javobgar sud majlisiga kelmasa, qaror sirtidan chiqariladi [9].

Germaniyada “Versäumnisurteil” deb ataladigan sirtdan hal qiluv qarori joriy etilgan. Agar taraflardan biri (odatda javobgar) sud majlisiga kelmasa, sud uning yo‘qligida ishni hal qilishi va avtomatik ravishda qaror chiqarishi mumkin.

Germaniya tajribasidagi e‘tiborga loyiq masala shundan iboratki, GFR FPKning III-bo‘limida da‘vogarga qarshi sirtdan qaror chiqarish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksining 331-paragrafi javobgar kelmagan taqdirda sirtdan qaror chiqarish tartibini belgilasa, 333-paragraf esa da‘vogar kelmagan holatda sirtdan ish yuritish imkoniyatini belgilaydi. Shu tariqa, Germaniya fuqarolik protsessual huquqida ishni da‘vogar kelmagan holda ham sirtdan ko‘rib chiqish mumkin bo‘lib, bu bilan mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchiligidan farq qiladi. Milliy amaliyotda esa faqat javobgar sudga kelmagan taqdirdagina sirtdan ish yuritishga yo‘l qo‘yiladi.

Javobgarga nisbatan sirtdan chiqarilgan qarordan bu qarorning asosiy farqi shundaki, unda da‘vo mazmuni umuman ahamiyatga ega emas. Bunda ish hech qanday mohiyatan huquqiy qayta ko‘rib chiqilmaydi; da‘vo faqat da‘vogarning sud protsessiga kelmasligi sababli rad etiladi. Bu o‘rinda sirtdan chiqarilgan qaror mohiyatan yakuniy va majburiy bo‘lishi mumkin [10].

Ko‘rib turganimizdek, sirtdan hal qiluv qarori instituti jahonning ko‘plab huquqiy tizimlarida ish yuritish samaradorligini oshirish va sud jarayonini cho‘zishni oldini olish maqsadida keng tatbiq etiladi. Ushbu institut fuqarolik ishlarini tezkor va samarali hal qilishda muhim mexanizm hisoblanadi.

Sirtdan ish yuritish institutining amal qilib kelish sabablari, birinchidan, inson huquqlarining ustuvorligi hisoblansa, ikkinchidan, "vaqt - bu pul" degan tamoyilga qat‘iy amal qilinishidir. Zero, har bir bekor o‘tgan daqiqalar katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin [11].

Shu o‘rinda, sirtdan ish yuritishning ahamiyatini quyidalarda ko‘rish mumkin:

birinchidan, fuqarolik ishlarini ko‘rib hal qilish tartibining xilma-xilligini ko‘rsatadi;

ikkinchidan, taraflarning sud oldidagi huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri anglashlariga imkoniyat yaratadi;

uchinchidan, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning mavjud protsessual tartibga rioya qilishlarini ta‘minlaydi;

to‘rtinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning odil sudlovni amalga oshirishga bo‘lgan mas‘uliyatini yanada kuchaytiradi;

beshinchidan, vaqtni tejash, protsessual muddatlarga rioya qilishni ta‘minlashga qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, sirtdan ish yuritishga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: **sirtdan ish yuritish** deganda, sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida qonunda belgilangan tartibda xabardor qilingan javobgarning sud majlisiga kelmaganligi, kelmaganligining uzrli sabablari borligi haqida xabar bermaganligi, ishni uning ishtirokisiz ko‘rish to‘g‘risida murojaat qilmaganligi, da‘vogarning ishni sirtdan ko‘rib hal qilishga e‘tiroz bildirmaganligi va natijada ishni javobgarning ishtirokisiz sirtdan ko‘rib hal qilish tushuniladi.

Sirtdan hal qiluv qarori chiqarish - bu sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida tegishli xabardor qilingan javobgarning sud protsessiga uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmasligi va uning ishtirokisiz, da‘vogarning albatta roziligi bilan ishni mazmunan ko‘rib chiqishdir.

Fuqarolik ishlarini sirtdan ko'rib chiqish jarayonida qonunda nazarda tutilgan tartib va shartlar mavjud bo'lib, o'z navbatida ularga rioya qilinishi ish yuzasidan chiqarilajak hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishining kafolati hisoblanadi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi FPKning 280-moddasida sirtdan hal qiluv qarori chiqarish uchun bir qator asoslar nazarda tutilgan. Quyida ushbu asoslarga birma-bir to'xtalib o'tamiz.

- Sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmaganligi, kelmaganligining uzrli sabablari borligi haqida xabar bermaganligi va ishni uning ishtirokisiz ko'rish to'g'risida so'ramaganligi.

Shu o'rinda, tegishli tartibda xabardor qilish deganda, FPKning 16-bobida nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilgan holda ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilish tushuniladi. Sirtdan ish yuritishning birinchi asosi haqida shuni aytish joizki, sud ishda javobgarga chaqiruv qog'ozi topshirilganligi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lmasa, sirtdan hal qiluv qarori chiqarish mumkin emasligiga sudlar e'tibor berishlari lozim. FPKning 280-moddasida ham javobgar tegishli tartibda xabardor qilinganligi haqida ishda ma'lumot bo'lishi lozimligi qayd etiladi.

Agarda javobgarining sudga kela olmasligining uzrli sabablari bo'lsa va bu haqda sudni xabardor qilgan bo'lsa, shuningdek agar javobgar o'zining ishtirokisiz ish ko'rishni iltimos qilsa, agar o'zining ishtirokisiz ishni sudga ko'rilishiga rozilik bermagan taraflar ikkinchi marotaba uzrli sabablarsiz sudga kelmasalar, bunday holatlarda ham sirtdan hal qiluv qarori chiqarish mumkin bo'lmaydi.

- Da'vogarning ish sirtdan ish yuritish tartibida ko'rilishiga e'tirozining bo'lmasligi.

Da'vogarning bunday ish yuritishga e'tirozining bo'lmasligi uning yozma arizasi bilan yoki sud majlisi bayonnomasida da'vogarning e'tirozi yo'qligi uning imzosi bilan tasdiqlanishi kerak. Bundan tashqari, da'voning o'zida da'vogarning talablarini qondirish bilan birga javobgar kelmagan taqdirda "sirtdan hal qiluv qarori chiqarishingizni so'rayman" mazmunidagi so'zlarning kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Agar sud majlisiga kelgan da'vogar ishni javobgar ishtirokisiz sirtdan ish yuritish tartibida ko'rishga rozi bo'lmasa, sud ishni ko'rishni keyinga qoldiradi va kelmagan javobgarga ishni sudga takror ko'riladigan vaqti va joyi haqida qayta xabar yuboradi. Bunday hollarda ham da'vogarning sirtdan hal qiluv qarori chiqarilishini talab qilish huquqi saqlanadi. Bu esa sirtdan ish yuritishning muhim protsessual xususiyatlaridan biri hisoblanib, har qanday holatda ham qonuniy huquq va manfaatlar buzilgan shaxsning huquqlarini o'z vaqtida himoya qilishga qaratilganidir.

Da'vogar o'z talablarini asoslaydigan dalillarni sudga taqdim etishi sirtdan ish yuritishda ham ruxsat etiladi. Sud ham o'z navbatida da'vogarga ish yuzasidan qo'shimcha dalillar taqdim etishni taklif etadi. Agar bu ishni keyinga qoldirishga olib kelsa, u holda ishni ko'rish Fuqarolik protsessual kodeksining umumiy qoidalari asosida amalga oshiriladi. Keyinga qoldirilgan ish agar yangidan boshlanganda javobgar ishda ishtirok etsa yoki da'vogar sirtdan ish ko'rishga o'z noro-ziligini bildirsa, u holda bu sirtdan ish ko'rish deb yuritilmaydi.

- Ishda bir nechta javobgar ishtirok etgan va sud majlisiga barcha javobgarlar kelmaganligi.

FPKning 280-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan mazkur shart fuqarolik protsessual qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan birmuncha o'zgartirilganligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Xususan, 1997 yil 30 avgustda qabul qilingan FPKning 224-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, agar ishda bir necha javobgar ishtirok etuvchi bo'lsa, sud majlisiga ulardan biri yoki ayrimlari kelmagan taqdirda, kelmagan javobgarga nisbatan sirtidan hal qiluv qarori chiqarilishiga yo'l qo'yilgan. Biroq mazkur qoidaga o'zgarish kiritilib, endilikda sud majlisiga barcha javobgarlar kelmagan taqdirda ish sirtidan ish yuritish tartibida ko'rilishi mumkinligi belgilandi. Ushbu normaning mohiyati shundan iboratki, agar ishda ishtirok etmagan javobgar sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqida ariza bersa va shu asosda ish qaytadan ko'riladigan bo'lsa, bu avval umumiy asosda chiqarilgan hal qiluv qaroriga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kiritilgan o'zgartirish buning natijasida kelib chiqadigan turli sarsongarchiliklarni va bir-birini rad etuvchi hal qiluv qarorlarining chiqarilishini oldini oladi.

Sirtidan hal qiluv qarori chiqarish uchun yuqorida ko'rsatilgan asoslardan loaqal birining mavjud bo'lmasligi ishni sirtidan ko'rilishiga to'sqinlik qiladi. Adabiyotlarda ham yuqoridagi shartning hammasi mavjud bo'lgandagina sud ishni sirtidan ko'rishga haqli bo'lishi haqida fikrlar ilgari surilgan.

Qonun sirtidan ish ko'rish jarayonida da'vogarning bir qator protsessual huquqlarini cheklaydi, chunonchi, sirtidan hal qiluv qarori chiqarilishiga rozilik birdirgan da'vogar sud protsessida da'voning asosi yoki predmetini o'zgartirishi yoki da'vo talablarining miqdorini ko'paytirishi mumkin emas. Ushbu protsessual huquqlarning da'vogar tomonidan ish ko'rish jarayonida foydalanishi, o'z navbatida ushbu holatdan bexabar bo'lgan javobgarning huquqlarini buzish, deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019 yil 24 maydagi "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi 12-sonli qarorining 19-bandida tushuntirish berilishicha, sudlar shuni nazarda tutishlari lozimki, sirtidan qabul qilingan hal qiluv qarorining mazmuni FPK 253-moddasining qoidalari bilan belgilanadi (FPK 283-moddasi). Qonunda ko'rsatilgan, hal qiluv qarorining mazmuniga mos keladigan umumiy talablardan tashqari, sirtidan qabul qilingan hal qiluv qarorining xulosa qismida ushbu hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish muddati va tartibi ko'rsatilishi lozim [12].

FPKning 281-moddasiga muvofiq, agar sud majlisiga kelgan da'vogar ishni javobgar ishtirokisiz sirtidan ish yuritish tartibida ko'rishga rozi bo'lmasa, sud ishning muhokamasini keyinga qoldiradi va kelmagan javobgarga yangi sud muhokamasining vaqti va joyi haqida takroran xabar yuboradi.

Tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga takroran kelmasa, sud da'vogarning fikridan qat'i nazar, ishni sirtidan ish yuritish tartibida ko'radi.

Sirtidan qabul qilingan hal qiluv qarorining mazmuni ushbu Kodeks 253-moddasining qoidalari bilan belgilanadi. Sirtidan qabul qilingan hal qiluv qarorining xulosa qismida ushbu hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish haqida ariza berish muddati va tartibi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

FPKning 285-moddasiga binoan javobgar sirtidan hal qiluv qarorini qabul qilgan sudga shu hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin o'n besh kun ichida uni qayta ko'rib chiqish to'g'risida ariza berishga haqli.

Sirtidan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza ushbu Kodeksning 287 - 291-moddalarida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

Sirtidan qabul qilingan hal qiluv qarori ushbu qarorni qabul qilgan sud tomonidan bekor qilingan taqdirda, ishni mazmunan ko'rib chiqish tiklanadi va mazkur Kodeksda nazarda tutilgan qoidalar asosida olib boriladi.

Sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda, ish yangidan ko'rib chiqilganda qabul qilingan hal qiluv qarori sirtidan qabul qilingan deb tan olinmaydi. Javobgar bu hal qiluv qarori sirtidan qabul qilingan qaror sifatida qayta ko'rib chiqilishini so'rab, ariza berishga haqli emas.

Shunday qilib, sirtidan ish yuritishda hech qaysi tarafning huquq va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bunda, birinchidan, tegishli protsessual tartib va qoidalar buzilmaydi; ikkinchidan, da'vogarning roziligi asosida ish ko'rishga yo'l qo'yiladi; uchinchidan, javobgarning huquqlari buzilmasligi ta'minlanadi; to'rtinchidan, ishni bunday tartibda ko'rishga sud ajrimi asosida yo'l qo'yiladi; beshinchidan, javobgar tegishli tarzda xabardor qilinganligi haqida ishda ma'lumot bo'lishi kerak.

Sirtidan hal qiluv qarori chiqarishning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan biri - da'vo tartibida ko'riladigan ishlar bo'yicha chiqarilishidir. Yuridik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, da'vo tartibidagi ishlardan farqli ravishda sud ishlarini yuritishning boshqa turlarida ish sirtidan ko'rilishi ham mumkin emas [13].

Sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda, da'vogar e'tiroz bildirmasa, ish sirtidan ish yuritish tartibida ko'rilishi mumkin. Ishni bunday tartibda ko'rish haqida sud ajrim chiqaradi. Javobgar tegishli tartibda xabardor qilinganligi haqida ishda ma'lumot bo'lishi lozim.

Ishda ishtirok etuvchi shaxsning vakili ishni sudga ko'rish vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilingan bo'lishiga qaramay, sudga kelmaganligi ishni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

Muqaddam 1997 yil 30 avnustda qabul qilingan FPKning 212-moddasida ish bo'yicha hal qiluv qarori o'qib eshittirilganidan keyin shu qarorni chiqargan sudning o'zi uni bekor qilishga yoki o'zgartirishga haqli emas, sirtidan chiqarilgan qaror bundan mustasno, degan norma mavjud edi. Biroq 2018 yilda qabul qilingan yangi FPKda ushbu qoida tushirib qoldirildi. Vaholanki, sud chiqargan qaror e'lon qilinganidan so'ng uning o'zi tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emasligi qoidasining mohiyati – huquqiy aniqlik, sud qarorlarining barqarorligi va odil sudlovning xolisligini ta'minlashda namoyon bo'ladi, bu hal qiluv qarorining o'zgarmasligini, qat'iyligini kafolatlovchi qoida hisoblanadi.

Sud hal qiluv qarori e'lon qilinganidan so'ng sud o'z ichki qarashlari yoki fikrining o'zgarishiga qarab qarorni qayta ko'rib chiqolmaydi, taraflar qabul qilingan qarorga asoslanib, o'z huquq va majburiyatlarini belgilab oladi. Agar sud e'lon qilingan qarorni o'zgartirishi mumkin bo'lsa, bu huquqiy beqarorlikka va sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchni yo'qolishiga olib keladi.

Sud – da'vogar yoki javobgar emas, balki xolis hakam hisoblanadi. Shuning uchun qarorni qayta ko'rib chiqish faqat tomonlar tashabbusi bilan va qonun bilan belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin (apellyatsiya, kassatsiya, taftish va h.k.).

Agar sud e'lon qilingan qarorni istalgan paytda o'zgartirishi mumkin bo'lsa u holda bu orqali manfaatdor shaxslar tomonidan bosim o'tkazilishi ehtimoli yuzaga keladi, sud mustaqillik va adolatlilik prinsipi buziladi.

Qaror e'lon qilinishi – uning qonuniy kuchga kirishiga olib boruvchi muhim bosqich hisoblanadi. Shu paytdan boshlab shikoyat berish muddati boshlanadi, qaror qonuniy kuchga kirganidan so'ng ijro etilishi mumkin bo'ladi.

Ko'plab davlatlar, jumladan, Rossiya Federatsiyasi FPKning 200-moddasi birinchi qismida hal qiluv qarori e'lon qilinganidan keyin ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqargan sud uni bekor qilishga yoki o'zgartirishga haqli emasligi mustahkamlab qo'yilgan [14]. Shunga o'xshash normalar Qozog'iston Respublikasi FPKning 235-moddasi, [15] Belarus Respublikasi FPKning 332-moddasi [16] va boshqa ko'plab davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligida o'z ifodasini topgan.

Xulosa. Mamlakatimiz FPKning 20-moddasida ishni birinchi instansiya sudida ko'rgan sudya, agar sudning hal qiluv qarori apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiyasi sudi tomonidan bekor qilingan bo'lsa, bu ishni takroran ko'rish mumkin emasligi, bundan yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishlarni ko'rish, shuningdek sirdan ish yuritish tartibida qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rish hollari mustasno ekanligi belgilanishi bilan cheklangan.

Shunday ekan, mamlakatimiz FPKning 261-moddasi birinchi qismiga "Hal qiluv qarori e'lon qilinganidan keyin ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqargan sud uni bekor qilishga yoki o'zgartirishga haqli emas" degan normani kiritish taklif qilinadi.

Shuningdek, xorijiy davlatlar (GFR) fuqarolik protsessual qonunchiligi tajribasidan kelib chiqib, taraflarning, shu jumladan da'vogarning o'z harakat yoki harakatsizligi uchun javobgarlik me'yorlarini oshirish, nizolarga ruxsat berilishini tezlatish, shuningdek sud ish yurituvda bo'lgan fuqarolik ishlarini birmuncha qisqartirish va ularni sud ish yurituvda to'planib qolishini oldini olish maqsadida da'vogar kelmagan taqdirda ham javobgarning roziligi bilan fuqarolik ishini sirdan ko'rib chiqish mumkinligini mamlakatimiz FPKda belgilash taklif qilinadi. Bunda fuqarolik ishi hech qanday mohiyatan huquqiy qayta ko'rib chiqilmaydi; da'vo faqat da'vogarning sud protsessiga kelmasligi sababli rad etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism / Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. O.Oqyulov. –Toshkent.: TDYuI nashriyoti. 2010. – 113 b.
2. Shoraxmetov Sh.Sh. Inson manfaatlariga qaratilgan kodeks // J. Qonun himoyasida. №2. 1998 yil.
3. Murodov N. Qaror ham sirdan bo'lam-a, javobgar ko'ngli to'lam-a?.. // https://uza.uz/uz/posts/qaror-ham-sirdan-bolam-a-zhavobgar-kongli-tolam-a_344188
4. Zivilprozessordnung. Das Versäumnisverfahren im Zivilprozess // <https://www.juracademy.de/zivilprozessordnung/versaumnisverfahren.html>
5. <https://stat.sud.uz/assets/uploads/civil/pdf/civil-2024-full.pdf>
6. Murodov N. Qaror ham sirdan bo'lam-a, javobgar ko'ngli to'lam-a?.. // https://uza.uz/uz/posts/qaror-ham-sirdan-bolam-a-zhavobgar-kongli-tolam-a_344188
7. European payment order // <https://e-justice.europa.eu/topics/money-monetary-claims/european-payment-order/ew/en>
8. Federal Rules of Civil Procedure // <https://www.law.cornell.edu/rules/frcp>
9. Code de procédure civile // https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section_lc/LEGITEXT000006070716/LEGISCTA000006165203/
10. Zivilprozessordnung // <https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/>

11. Решетняк В.И. Черных И.И. Заочное производства и судебный приказ в гражданском процессе. -М.: 1997. -С. 5-8.
12. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019 yil 24 maydagi "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi 12-sonli qarori // <https://lex.uz/acts/4396483>
13. Гражданский процесс / Учебник. Отв. Ред.проф.В.В.Ярков. –М.: Волтерс Клувер, 2004. -364 с.
14. Гражданский процессуальный кодекс Российской Федерации от 14.11.2002 N 138-ФЗ (ред. от 01.04.2025) // https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_39570/2d2a65f7e564a5c8f29b80089efcaedc87e17279/
15. Гражданский процессуальный кодекс Республики Казахстан от 31 октября 2015 года № 377-V ЗРК // https://kodeksy-kz.com/ka/grazhdanskij_protseessualnyj_kodeks.htm
16. Гражданский процессуальный кодекс Республики Беларусь от 11 января 1999 года № 238-З (с изменениями и дополнениями по состоянию на 08.07.2024 г.) // <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900238>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).